## XIZMAT KOʻRSATISH SHARTNOMASI

430-sonli

**Urgut tumani** **“22” 11 2022 yil**

Bundan buyon «Buyurtmachi» deb ataluvchi “Urgut tuman obodonlashtirish boshqarmasi” nomidan Nizom asosida ish yurituvchi boshligi X.Yarbabaev orqali va «Bajaruvchi» deb ataluvchi «MAROQAND BUNYODKOR QURILISH» MChJ nomidan uning nizom asosida ish yurituvchi direktori A.Davlatov quyidagi shartnomani tuzdilar:

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 **«Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning** topshirigʻi boʻyicha quidagi loyixa-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: Samarkand viloyati Urgut tuman obodonlashtirish boshqarmasi buyurtmachiligida Mahalliy byudjet mablagʻlari hisobidan 2022 yilda ta’mirlanishi belgilangan koʻchalarni joriy tamirlash ishlari boʻyicha tasdiqlangan manzilli dasturiga asosan Urgut tumani **“Yuqori Tegana mahallasi” X.Bayqaro ichki** koʻchalarini joriy ta’mirlash uchun loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlashni belgilangan normalarga rioya qiligan xolda.

1.2. «Buyurtmachi» loyixa-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta xujjatlarini tuzish uchun zarur boʻlgan boshlangʻich ma’lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2-3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini toʻlash majburiyatini oladi.

### 2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma baxosi QQS bilan **23 170 000 (Yigirma uch million bir yuz yetmish ming) soʻmni** tashkil qiladi.

### 3. TOʻLOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma boʻyicha toʻlov quydagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnomani Gʻaznachilik roʻyxatidan oʻtgan kundan boshlab 3 (oʻn) bank kuni ichida shartnoma bahosining 30 % miqdorida avans toʻlovini amalga oshiradi.

3.2. Toʻlov shakli: Shartnoma bilan belgilangan toʻlovlar pul koʻchirish yoʻli bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda koʻrsatilgan koʻchalar bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablagʻi miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

3.4.«Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolangandan soʻng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddati hisobga olingan holda, manzillii dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan soʻng 10 bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq toʻlashni oʻz zimmasiga oladi.

3.5. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta koʻrib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini koʻpaytirishga yengib boʻlmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab boʻlganda;
- Ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan oʻzgartirilganda;

### 4.TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchi» loyixa-smeta xujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumaladan,keyinchalik qurilish jarayonida, shunindek tayerlangan loyixa-smeta xujjatlari ma’lumotlari asosida barpo etilgan ob’ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma’lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida

Кўриб чиқган юрист: YOQUBOV ODILJON ILXOM O'G'LI. Хужжат рақами: BX3810526553

bajarishni, Buyurtmachi bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o‘z zimmasiga oladi.

4.3. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan birlamchi ma’lumotlar va materiallarni Bajaruvchiga taqdim qiladi.

4.4. Buyurtmachi shartnomada ko‘zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to‘lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko‘rsatilgan xajm va shartlarga muvofiq bajarilishida Bajaruvchiga yordam ko‘rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko‘zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, Bajaruvchining roziligisiz shartnoma bo‘yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma’lumotlarni tarqatmaslikni o‘z zimmasiga oladi.

4.5. Buyurtmachi tomonidan avans to‘lovlari o‘z vaqtida o‘tqazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan birlamchi ma’lumotlar va materiallarni Bajaruvchining talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to‘lovi va ma’lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo‘yicha Bajaruvchi o‘z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo‘shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o‘z hisobidan qaytadan bajaradi.

## 5.TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek Bajaruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi Sotuvchiga tanlab olinmagan (o‘z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo‘yicha esa —10 foiz miqdorida jarima to‘laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, Bajaruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o‘z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to‘lanishini talab qilishga haqlidir.

5.2. To‘lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to‘lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to‘lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun Buyurtmachi mahsulot Sotuvchiga o‘zi to‘lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar haqini o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun Buyurtmachi Bajaruvchiga o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida penya to‘laydi.

5.3. Bajaruvchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo‘yicha Bajaruvchi shartnoma shartlarining Buyurtmachi nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;
- shartnoma shartlarining boshqa buzilishlari;
- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

5.4. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo‘yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo‘jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, Buyurtmachi (Buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to‘lashni rad etib, Sotuvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo‘lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to‘lab qo‘yilgan bo‘lsa, to‘langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

«MAROQAND BUNYODKOR QURILISH» O.O.O.

Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo‘lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima Bajaruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

5.5. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to‘liq yetkazib berilmagan, tovar Sotuvchi Buyurtmachiga (Buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to‘lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to‘liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.6. Marka belgisi qo‘yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o‘ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o‘ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun Bajaruvchi sotib oluvchiga (Sotib oluvchiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to‘laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo‘natilishi yoki saqlanishi kerak bo‘lgan hollarda sotib oluvchi (Sotib oluvchi) jarima undirishdan tashqari, o‘z kuchi bilan, lekin Bajaruvchi hisobidan tovarlarni o‘rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi Bajaruvchidan tovarlarni o‘rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

## 6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta xujjatlrini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolangandan so‘ng G‘aznachilikda ro‘yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma 2022-yil 31-dekabrga qadar amalda bo'ladi

Ro'yxatga olingan kundan boshlab 5 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyixa-smeta xujatlari ishlab chiqib shu xujjatlarni va ekspertiza xulosasining asl nusxasini «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1, 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish ishlarini «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi (1-ilova)

6.3. Ishlar tugagandan so‘ng «Bajaruvchi»«Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo‘lgan qo‘shimcha ishlarning ro‘yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko‘rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to‘xtatish to‘g‘risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishi shart. Ishlarning to‘xtatilishi tomonlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko‘zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi

6.6. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko‘zda tutilgan ishlarni to‘xtatish to‘g‘risida yozma xabar bergan vaqt o‘zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

6.7. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo‘yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

## 7. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

7.1.Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko‘ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko‘radilar.

7.2. Tomonlarni kelishuviga asosan shartnomani 5.1 bandi bajarilmagan taqdirda tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilinib, sud orqali hal qilinadi.

D.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: UV04306450

## 8. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Buyurtmachi va Bajaruvchi ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## 9.KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

9.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalarga oid shartlarni va talablarni tadbiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

9.2. "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga mazkur shartnoma doirasida qo'yidagilarni kafolatlaydi va qo'yidagi majburiyatlarni xam o'z zimmasiga oladi: Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "Bajaruvchi"ning korrupiya qarshi amaldagi talablariga va O'zbekiston Respublikasiiying barcha qonun va qoidalariga kat'iy rioya kiladi.

## 10.TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

| «BAJARUVChI» | "BUYuRTMAChI» |
|---|---|
| Nomi: MAROQND BUNYODKOR QURILISH<br>Manzili: Samarqand shaxri ko'ksaroy<br>Bank`nomi: Aloqa bank Toshkent sh<br>Xisob rakami: 20208000804841414001<br>MFO: 00401<br>STIR: 301327746<br>OKED : 71110<br><br>Raxbar: ________ A.Davlatov | Nomi: "Urgut tuman Obodonlashtirish boshkarmasi"<br>Manzili: Urgut shaxri Kamardon MFY<br>Bank nomi:Toshkent sh Markaziy bank Toshkent sh XKKM"<br>ShXV<br>401722860182367045204110006<br>x/r : 23402000300100001010<br>MFO: 00014 STIR: 201122919<br>OKED 84120<br><br>Raxbar: __________ X.Yarbabaev |

MAROQAND BUNYODKOR QURILISH

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

XE3723160457

**1**. Loyihaning turi : Shartnoma

**2.** Loyihaning nomi: **«MAROQAND BUNYODKOR QURILISH» MChJ bilan Urgut tumani Obodonlashtirish boshqarmasi o‘rtasida 23 170 000.00 (Yigirma uch million bir yuz yetmish ming) so‘mga tuzilgan shartnoma**

**3.** Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Urgut tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 17.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Urgut tuman yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

**U.Y.MAXMAISAYEV**

21.11.2022